НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК * SCIENTIFIC BULLETIN

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI

ILMIY AXBOROTNOMASI

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

№ 7, 2026

https://bxu.uz

ISSN 3030-3710 (P)
ISSN 3030-3095 (E)

BUXORO XALQARO UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI

ilmiy-amaliy jurnal

№ 07-son, 2026

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2023 yil 29 dekabrdagi 347-son qarori bilan 10.00.00 – filologiya, 13.00.00 – pedagogika, 19.00.00 – psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruruiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Журнал включён в перечень обязательных научных изданий, в которых должны публиковаться основные результаты диссертационных исследований, решением Президиума ВАК при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан от 29 декабря 2023 года № 347 по следующим научным специальностям: 10.00.00 – филология, 13.00.00 – педагогика, 19.00.00 – психология.

The journal is included in the list of required publications for publishing scientific articles based on the results of dissertation research in the fields of 10.00.00 – Philology, 13.00.00 – Pedagogy, and 19.00.00 – Psychology, in accordance with Resolution No. 347 of December 29, 2023, adopted by the Presidium of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan.

Muassis: Buxoro xalqaro universiteti
Tahririyat manzili: Buxoro viloyati, Kogon tumani, B.Naqshband MFY, 20-uy
http://buxpxti.uz/, buxpxti@gmail.com

Tel: +998918312511 Sobirova D.A.
+998905124244 Ostanov Sh.Sh.
https://t.me/OstanovSH

Mundarija /Содержание/Contents

	Muallif va maqola nomi
5	**Xolmatova Saidaxon Voxobjonovna** Inklyuziv ta'lim sharoitida pedagogning axloqiy dilemmalari va ularni hal etish mexanizmlari
9	**Атабекова Амина Байрамбековна** Симуляция дипломатических переговоров: роль диалога и интервью в подготовке будущих специалистов при обучении русского языка
13	**Mehmonova Chinora Ro'ziboy qizi** Jadidlar ta'limotida insonparvar pedagog timsoli va uning ijtimoiy reabilitatsiyadagi pedagogik ahamiyati
17	**Sabirova Nasiba Ergashevna, Ro'zmetova Gulhayo Sharif qizi** Zamonaviy ta'limda differensial yondashuv orqali o'quv faoliyatini rivojlantirish
23	**Шарафутдинова Марвар Рашидовна** Основные художественные течения и литературные Направления серебряного века
29	**G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich** Tashqi olamdan olinadigan ma'lumotlar asosida tuzilgan Intellect xarita yordamida o'quvchilarning ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish
34	**Ражабова Рано, Мусаева Амина Караматовна** Цветообозначения в русском языке и их семантика
39	**Тураева Садокат Алимбаевна, Муродова Дилдора Арабовна** Историко-лингвистический анализ склонения существительных в русском языке
43	**Bekberganov Avazbek, Bekberganova Khilola** The role of pragmatics, pragmalinguistics and media discourse in shaping modern communication
46	**Bannayev Maxamadin Sotvoldiyevich** O'spirinlik davrida depressiv holatlar namoyon bo'lish darajasining o'ziga xos xususiyatlari
52	**Ablyakimova Refide Izmerovna** Ta'lim jarayonida xotin-qizlarning liderlik va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik mexanizmlari
56	**Komilova Nilufar Abdilkadimovna** The problem of social and cultural factors in the universal linguistic theory of the gender phenomenon
60	**Эшкуватова Мафтуна Одил кизи** Риторические вопросы как средство формирования Психологической напряженности в художественном тексте
65	**Xudoyorova Nigora Nuriddinovna** Navoiy forsiy va turkiy g'azallarining qiyosiy o'rganilishi
70	**Katayev Salaxiddin Valiqul o'g'li** Oliy ta'lim tizimida ingliz tili fanini o'qitishda sun'iy intellektning ahamiyati
74	**Sobirova Subinsoxon Muxsinjon qizi** Ko'zi ojiz bolalarning eshitish idrokini rivojlantirishda maxsus pedagogik texnologiyalarni qo'llash
80	**Ravshanov Xusan Abdiqul o'g'li** Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning o'zini o'zi faollashtirishining ijtimoiy-psixologik mexanizmlari
86	**Хаитбаева Наима Хабибуллаевна** Речевая задача в проектировании урока рки для студентов с узбекским языком обучения
90	**Bekzod Xalilov** Bo'lajak psixologlarda matematik qobiliyat va analitik fikrlashning kasbiy faoliyat samaradorligiga ta'siri

96	**Qo'yliyev Ulug'bek Ravshanovich** Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarida mantiqiy tafakkurning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar
102	**Кодирова Дилноза Муртазоевна** Педагогико-психологические особенности профессиональной идентичности у студентов-молодежи
108	**Нарзуллаева Шахризода, Мурадова Дилдора Арабовна** Коммуникативное понимание и рефлексия в современном образовательном пространстве
113	**Muqimova Zulxumor Ziyataliyevna** Mustaqil ta'limni bulutli texnologiyalar yordamida tashkil etishda xorij tajribasi (boshlang'ich ta'lim misolida)
119	**Eshimova Zarnigor Shuhrat qizi** Asar yaratishda muallifning konseptual niyati
123	**Haydarov Shahriyor Shuxrat o'g'li** Uyushmagan yoshlarga psixologik xizmat ko'rsatish modeli va uning o'ziga xos ilmiy-amaliy asoslari
130	**Berdiyeva Nozima Furqat qizi** Abdulg'oziy Bahodirxonning Shajarayi Turk asaridagi etnonimlarning lisoniy tadqiqi
137	**Aytmuratov Baxtiyar Turganbaevich** Talabalarda metakognitiv va metarefleksiv qobiliyatlarni rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining pedagogik samaradorligi
143	**Gaziyeva Nozima Shoirjon qizi** Oliy ta'limda innovatsion boshqaruv va nizolar profilaktikasi
147	**Mardiyeva Dilorom** O'qituvchilarda kasbiy stress va burnout sindromining namoyon bo'lish xususiyatlari
151	**Boboniyozova Manzura Karim qizi** Istiqlol davri o'zbek romanlari: "Yaldo kechasi" romanida qodiriy an'analari
156	**Jo'raqulova Parizoda Otabek qizi** A comparative analysis of changes in cultural identity during the learning of english and uzbek
161	**Barotov Bahodir** Mashrab she'riyatida tasavvufiy dunyo qarashning badiiy ifodasi
165	**Ziyatov Muhammad Namazovich** Yuqori aqliy yuklama sharoitida talaba qizlarning yurak-qon tomir tizimi funksional holatini korreksiyalashda kardio-fitnes dasturlari
169	**Mashhura Sultonova Rustamboyevna** Yetuklik yoshidagi ayollarda hayotdan qoniqishga ta'sir etuvchi psixologik determinantlar
174	**Nomozova Latofat Rustamovna** Yuqori sinf o'qituvchilarida psixologik kompetentsiyalarning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar
180	**Kamilova Madina Xamidjanovna** O'zbek oilalarida huquqiy sotsializatsiya huquqiy savodxonlikning psixologik determinantlari sifatida
184	**Muhiddinova Dilrabo Baxriddin qizi** Kichik maktab o'quvchilariga qadriyatli munosabat asosida pozitivlikni shakllantirish
188	**Qalandarov Umidbek Ravshanbekovich** Rahbarlik faoliyatida irodaviy regulyatsiya va o'z-o'zini boshqarishning psixologik mexanizmlari
192	**Burxanova Dilnozaxon Ilxomjon qizi** Qarindoshlik atamalarida semantik o'zgarishlarning kognitiv asoslari

196	**Abdunosirova Zarinaxon Anvarjon qizi** Pragmatic features of english advertising discourse
202	**Тангриева Диёра Гани кизи** Морфологическая интерференция в системе падежей русского и узбекского языков
206	**Sabirova Fatimajon Xushnudovna** Mumtoz matnlarda germenevtik yondashuv
211	**Otakulova Dilorom Azimjonovna** O‘spirinlar o‘rtasida kiberzo‘ravonlikni kamaytirishning psixologik va ijtimoiy mexanizmlari
216	**Abdullayeva Durdona Ravshanjon qizi** Yoshlarda ijtimoiy solishtirish jarayonining psixologik mohiyati
220	**Suleymanova Nargiza Mardonovna, Amanov Abdugani Telmanovich** Stylistic and pragmatic features of the politeness category in english and uzbek literary works
225	**Xoldarova Irodaxon Valijonovna** Kooperativ ta'lim usuli orqali o‘quvchilar faolligini oshirish
230	**Yangiboyeva Dilnoza Abdurasul qizi** Sport faoliyatida stressga chidamlilikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari
236	**Saidnazarova Saodat Kurbonboyevna** Zamonaviy mediadiskurs tizimida gazeta diskursining lingvopragmatik xususiyatlari
242	**Abdullayev Shaxboz Solijon o'g'li, Mamatkarimova Saidaxon Mamatvali qiz** Raqamli transformatsiya sharoitida bulutli texnologiyalar va big data asosida ta’lim modeli
249	**Kozimova Nigora Abduqahorovna** Talabalarning oliy ta’limga akademik va psixologik moslashuv mexanizmlari
254	**Isaqova Elvina Dilaverovna** O‘zbek va ingliz tillaridagi flora-fauna konseptiga oid tez aytishlarning semantik-stilistik xususiyatlarini o‘rganish usullari
259	**Tojiyeva Asila Abdimannon qizi** Bo‘lajak pedagoglarda kreativ kompetentlikni rivojlantirish omillari
264	**Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi** Xalq pedagogikasi asosida milliy tarbiyani shakllantirishning nazariy asoslari
270	**G‘ayratov Shaxzodbek Otabek o‘g‘li** The noun (ism) in arabic syntax and the noun Word class in uzbek: a comparative analysis
274	**Ergashev Zoxidjon Xamidulla o‘g‘li** Social criticism, moral responsibility, and human values in said ahmad’s short stories “the burden” and “the stubborn man”
278	**Abduvahobov Shahzodbek Ravshanbek o‘g‘li** The object in arabic grammar (naḥw) and the object in uzbek: a comparative analysis
283	**Arabov Is’hoq** Zamonaviy psixoanalitika va islom psixologiyasida shaxs strukturasi tahlilining o‘ziga xosligi
286	**Nigmanov Bori Botirovich, Abdug‘ofurov Umidjon G‘ayrat o‘g‘li** 10-12 yoshli futbolchilarga to‘pni to‘xtatish texnikasini o‘rgatishda maxsus mashqlarning o‘rni
290	**Bobomurotova Mahfuza** Pirimqul Qodirovning “avlodlar dovoni” romanida umumiste’mol leksikaning uslubiy im-koniyatlari
295	**Botirov Zoir Nuriddin o‘g‘li** O‘smirlar ijodiy faoliyatining ilmiy-nazariy tadqiqotlari tahlili
300	**Djuxonova Noxida Xayotjonovna** Qishloq hududida yashovchi bir va ko‘p millatli oilalarda nikoh munosabatlarining ijtimoiy - psixologik xususiyatlari
305	**Abdurahimova Durdona Tavqkkqljon qizi** Onomastic strategies in john milton's paradise lost

311	**Kabulova Indira Xojabaevna** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining madaniy rivojlantirish
314	**Bozorboyeva Marjona Jumaboy qizi** Ingliz tili darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining og‘zaki nutqini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik zarurati
319	**Mirzajonova Eleonora Topvoldievna** Psixoterapevtik usullarning talabalarda ruhiy tiklanish va xavotirlanish darajasiga ta’siri
323	**Nigmanov Bori Botirovich, Avazov Dilshod Alisher o'g'li** Basketbolchilarga texnik harakatlarni o‘rgatishga harakatli o‘yinlardan foydalanish
327	**Orifova Oqilaxon Javlon qizi** Oilada ekologik madaniyatni rivojlantirish ijtimoiy pedagogik muammo sifatida
330	**Babaniyazova Nursulıw Konısbayevna** Qoraqalpoq tilida evfemizmlarning stillarda qo‘llanilish xususiyatlari
334	**Орзиева Шохсанам** Выражение англосаксонского нравственного мировоззрения в английской художественной литературе xix века (на материале романа чарльза диккенса «great expectations»)
342	**Shukurov Uktam Bakhodirovich** Theoretical foundations for forming cognitive-pragmatic competence in future english teachers
347	**Xaitov Zufar Asroralievich** Ajdodlar siymosini ifodalashda amaliy-ijodiy loyiha portfoliosining tahlili
353	**Xujomov Bobomurod Xaytmurodovich** O‘zbek kurashini rivojlantirishning pedagogik va tashkiliy asoslari
357	**Yangiboyeva Dildoraxon Rahmon qizi** Distant oilalarda oilaviy farovonlik va shaxslararo munosabatlarning psixologik determinantlari
365	**Ташкулова Зарнигор** Репрезентация персонажных концептов «англичанин» и «восточная женщина» в творчестве с.моэма
370	**Абдукахорова Азиза Кодиржоновна, Азизова Насиба Бахритдиновна** Лингвокультурологические особенности перевода безэквивалентной лексики
377	**Турдикулова Эъзозхон Эркинжон кизи** Эффективность использования интернет-технологий в формировании иноязычной коммуникативной компетенции младших школьников
382	**O‘ktamova Shohida Odilbek qizi** Talabalik davrida tanqidiy fikrlashning rivojlanish xususiyatlari
390	**Muxamadiyeva Laziza Nizomovna** Tarix darslarida sun’iy intellektdan foydalanish imkoniyatlari
394	**Турдиева Зухра Алмаматовна** Интеграция цифровых платформ в процесс формирования лексических навыков на начальном этапе обучения рки
399	**Umarov Lutfillo Murodilloyevich** Uzluksiz kasbiy ta’lim tizimi makonini modellashtirish: umumiy metodologiya
404	**Ganiyeva Gulandon Ibragimovna** Oliy ta’limda psixologiya fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish texnologiyasi
408	**Jabborova Feruza Majidovna** Boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining shaxslararo muloqotida emotsional barqarorlik omillari
413	**Nozima Xakimovna Aslanova** Ta'limning universal dizayni orqali amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda kollaborativ yondashuv
417	**Zohirov Nodirbek Ulug‘bekovich**

	Jamoat xavfsizligini ta’minlovchi harbiy xizmatchilar shaxsiyatining ko‘p omilli tuzilmasi va axloqiy-irodaviy sifatlar determinatsiyasi
423	**Sattarova Sevara Olimovna** Erkin Vohidov poetik tafakkurining shakllanishida rus poeziyasi tajribalarining o‘rni
427	**Achilova Sevara Djasirkulovna** Rinolaliya og‘ir nutq nuqsonini bartaraf etish usullari va mustaqil ta’limda o‘rgatish ishlari mazmuni
431	**Гулямова Фатима Мехриддиновна** Проблемы формирования видовых пар у непродуктивных глаголов на начальном этапе обучения рки
437	**Raimdjanova Gulasal Baxtiyor qizi** Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda prokrastinatsiya muammosi: shakllanish sabablari va asosiy turlari
442	**Xolmatova Ziroatxon Anvarovna** O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda pedagogik diagnostikaning o’rni
447	**Akbarova Feruza Uktamjonovna** Bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogik fikr-g‘oyalardan kreativ foydalanishga tayyor-lashning pedagogik imkoniyatlar
452	**Mukhamatjonova Diyora Rustam qizi** Experience in enhancing english language teaching methodology through discourse compe-tence development in non-philological programs
457	**Ernazarova Shahnoza Ergash qizi** Ingliz va o‘zbek tillarida maqollarning taraqqiyot bosqichlari
462	**Khashimova Mokhira Abdusatarovna** Modern civilizational terms in arabic: history, scholars, and standardization challenges
467	**Hojiyeva Nasiba Bahodirovna** Sun’iy intellekt texnologiyalarining talaba shaxsini rivojlantirishdagi pedagogik imkoni-yatlari
471	**Амира Нарзуллаева, Муродова Дильдора Арабовна** Особенности женской лирики в творчестве анны ахматовой и марины цветаевой
476	**Назарова Муяссархон Рахимжоновна** Современные тенденции развития суффиксального словообразования прилагательных в русском языке
481	**Sidiqova Yulduz Sobirovna** O‘quvchilarda nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishda innovatsion metodlarning ahamiyati
485	**Xamroyeva Nargiza Shavkatovna** Raqamli ta’lim muhitida o‘quvchilarning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini baholash-ning innovatsion diagnostik modeli
489	**Norho’jayeva Dilnozaxon Odiljon qizi** Psixologik maslahat ishini tashkil etishning nazariy-metodik va amaliy asoslari
494	**Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi** Zo’rovonlikga uchragan bolalar oilasini psixologik jihatadan qo’llab quvvatlash
499	**Tohirova Hamidaxon Lutfulla qizi** Emotsional intellekt tushunchasining psixologik mohiyati hamda uning shaxs rivojlanishidagi o‘rni

Nozima Xakimovna Aslanova
Buxoro viloyati pedagogik mahorat markazi,
Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasi mudiri,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

TA'LIMNING UNIVERSAL DIZAYNI ORQALI AMALIY KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA KOLLABORATIV YONDASHUV

Annotatsiya. *Mazkur maqolada inklyuziv ta’lim tizimida Ta’limning universal dizayni (TUD, Universal Design for Learning – UDL) tamoyillari asosida o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Tadqiqotda TUDning uch asosiy tamoyili – turli yo‘llar bilan jalb etish, o‘quv materiallarini turli usullarda taqdim etish va bilimlarni turli shakllarda ifodalash imkoniyatlarini yaratish – inklyuziv ta’lim samaradorligini oshiruvchi omillar sifatida yoritilgan. Shuningdek, "Besh soha" modeli, kuzatish va talqin metodikasi hamda kollaborativ va differensial ta’lim texnologiyalarining o‘quvchilarning amaliy faoliyati va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o‘rni asoslab berilgan.*

Kalit so’zlar: *inklyuziv ta’lim, Ta’limning universal dizayni, UDL, TUD, amaliy ko‘nikmalar, differensial yondashuv, kollaborativ ta’lim, Besh soha modeli, inklyuziv pedagogika, ta’lim muhiti.*

КОЛЛАБОРАТИВНЫЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ ПРАКТИЧЕСКИХ НАВЫКОВ ПОСРЕДСТВОМ УНИВЕРСАЛЬНОГО ДИЗАЙНА ОБУЧЕНИЯ

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретические и практические основы формирования практических навыков учащихся в условиях инклюзивного образования на основе принципов Универсального дизайна обучения (Universal Design for Learning – UDL). Особое внимание уделено модели «Пять сфер», методике наблюдения и интерпретации, а также стратегиям множественного вовлечения, представления и выражения учебной деятельности. Обоснована эффективность применения коллаборативных и дифференцированных образовательных технологий для развития учебной мотивации и коммуникативных компетенций обучающихся.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, универсальный дизайн обучения, практические навыки, UDL, дифференцированный подход, коллаборативное обучение, модель «Пять сфер», инновационные педагогические технологии.*

A COLLABORATIVE APPROACH TO DEVELOPING PRACTICAL SKILLS THROUGH UNIVERSAL DESIGN FOR LEARNING (UDL)

Abstract. *This article examines the theoretical and practical foundations of developing students’ practical skills through the principles of Universal Design for Learning (UDL) within inclusive education. The study highlights the significance of the three core UDL principles: multiple means of engagement, representation, and action and expression. It also explores the role of the “Five Domains” model, observation and interpretation strategies, and collaborative and differentiated learning technologies in promoting learners’ practical skills, communication competencies, and active participation. The findings indicate that implementing UDL principles contributes to creating equitable educational opportunities and improving the quality of inclusive education.*

Key words: *inclusive education, Universal Design for Learning, UDL, practical skills, inclusive pedagogy, differentiated instruction, collaborative learning, Five Domains model, educational innovation.*

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida inklyuzivlik tamoyili inson huquqlarini ta’minlashning muhim tarkibiy qismi sifatida e’tirof etilmoqda. BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasi hamda UNESCO va UNICEFning “Barcha uchun ta’lim” konsepsiyasiga muvofiq, har bir bola sifatli va teng huquqli ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, ta’lim

muhitini barcha o‘quvchilar ehtiyojlariga mos ravishda tashkil etish, o‘quv jarayonidagi to‘siqlarni kamaytirish va individual farqlarni hisobga olish zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biridir.

Mamlakatimizda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ta’lim muassasalarida maxsus sharoitlar yaratish kafolatlangan. Inklyuziv ta’limning samaradorligi ko‘p jihatdan ta’lim mazmuni va metodlarini loyihalashga bog‘liqligi sababli zamonaviy ta’lim paradigmalariga asoslangan innovatsion yondashuvlar talab etilmoqda. An’anaviy yondashuvlarda o‘quvchilar mavjud tizimga moslashishga majbur bo‘lsa, Ta’limning universal dizayni (TUD) konsepsiyasi aksincha, ta’lim tizimini o‘quvchilarning turli ehtiyojlariga moslashtirishni nazarda tutadi. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning jismoniy, kognitiv, emotsional yoki ijtimoiy xususiyatlaridan qat’i nazar, ularning ta’lim jarayonida faol ishtirok etishini ta’minlashga qaratilgan.

So‘nggi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalar, mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish va hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Shu bois TUD tamoyillarini amaliyotga joriy etishning pedagogik imkoniyatlarini ilmiy asosda o‘rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning maqsadi – inklyuziv ta’lim sharoitida Ta’limning universal dizayni tamoyillari asosida o‘quvchilarda amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini tahlil qilish va ularning samaradorligini asoslashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Tadqiqot jarayonida nazariy va empirik metodlar majmuasidan foydalanildi. Xususan, inklyuziv pedagogika, Universal Design for Learning (UDL), differensial va kollaborativ ta’limga oid ilmiy manbalar qiyosiy-tahliliy usulda o‘rganildi. UNESCO, CAST tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar hamda inklyuziv ta’lim bo‘yicha xalqaro trening materiallari tahlil qilindi.

Empirik bosqichda pedagogik kuzatish, amaliy mashg‘ulotlarni tahlil qilish, ta’lim jarayonida qo‘llanilgan metodlarni monitoring qilish hamda o‘quvchilarning o‘quv faoliyatini "kuzatish va talqin qilish" metodikasi asosida baholash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy, tizimli-faoliyat, differensial va inklyuziv pedagogika yondashuvlari tashkil etdi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning nazariy asoslari K. Rogers, A. Maslow, I.S.Yakimanskaya va V.V. Serikov ishlarida yoritilgan bo‘lib, ularda o‘quvchi shaxsining individual ehtiyojlari va rivojlanishiga ustuvor ahamiyat beriladi. Kompetensiyaviy yondashuvning ilmiy asoslari A.V. Xutorskoy, I.A. Zimnyaya, John Raven va Philippe Perrenoud tomonidan ishlab chiqilgan. Tizimli-faoliyat yondashuvi L.S. Vygotskiy, A.N. Leontev, S.L. Rubinshteyn, P.Ya. Galperin, V.V. Davidov hamda D.B. Elkoninlarning faoliyat nazariyasi va madaniy-tarixiy konsepsiyalariga tayanadi. Differensial ta’lim g‘oyalari Carol Ann Tomlinson va boshqa olimlarning ishlari orqali rivojlantirilgan. Inklyuziv pedagogikaning zamonaviy ilmiy asoslari esa Lani Florian, Kristine Black-Hawkins, Mel Ainscow, Tony Booth va David Mitchell tadqiqotlarida o‘z ifodasini topgan. Tadqiqotda, shuningdek, David H. Rose va Anne Meyer tomonidan ishlab chiqilgan Ta’limning universal dizayni (UDL) konsepsiyasi metodologik asos sifatida qabul qilindi.

Natijalar. Tadqiqot natijalari TUD tamoyillarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish inklyuziv muhitda o‘quvchilarning amaliy va kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi. Avvalo, "kuzatish" va "talqin" tushunchalarini ajratish o‘qituvchining pedagogik qarorlarini aniqroq qabul qilishiga yordam berdi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, darsda sust ishtirok etayotgan yoki topshiriqlarni bajarmayotgan o‘quvchilarning aksariyatida motivatsiya yetishmasligi emas, balki o‘quv materialining taqdim etilish shakli yoki o‘z bilimini ifodalash imkoniyatlarining cheklanganligi asosiy sabab bo‘lgan. TUDning "Besh soha" modeli asosida olib borilgan tahlillar o‘quvchilarning qiyinchiliklari idrok (ko‘rish, eshitish, axborotni qabul qilish), regulyasiya (diqqatni boshqarish va emotsional nazorat), asosiy akademik ko‘nikmalar (o‘qish, yozish, hisoblash), mazmunni anglash va avvalgi bilimlar bilan integratsiyalash, bilimlarni turli usullarda ifodalash singari soha yo‘nalishlarida namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. O‘quvchilarga topshiriqlarni bajarishda tanlov imkoniyatlari yaratilganda (yozma javob, rasm, loyiha, plakat yoki og‘zaki taqdimot

shaklida) ularning darsdagi faolligi va o‘quv motivatsiyasi oshgani kuzatildi. Ayniqsa, "O‘yla – juftlikda muhokama qil – sinf bilan bo‘lish", "Pazzl", Frayer modeli, B.B.B. jadvali, grafik organayzerlar va loyiha metodidan foydalanish o‘quvchilarning hamkorlikda ishlash va amaliy muammolarni hal etish kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shuningdek, moslashuvchan o‘quv muhiti (yorug‘lik, akustika, mos mebellar, individual va guruhli ish zonalari, vizual ko‘maklar hamda yordamchi texnologiyalar) o‘quvchilarning ta’lim jarayonidagi ishtirokini sezilarli darajada yaxshilashi aniqlandi.

Muhokama. Olingan natijalar xalqaro tadqiqotlarda keltirilgan ilmiy xulosalar bilan uyg‘unlik kasb etadi. Xususan, CAST (Center for Applied Special Technology) tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan UDL yo‘riqnomalarida ta’limni moslashuvchan loyihalash va o‘quvchilarga bilimlarni o‘zlashtirish hamda ifodalashning turli usullarini taqdim etish inklyuziv ta’limning muhim sharti sifatida qayd etilgan. Florian va Black-Hawkins tomonidan ishlab chiqilgan inklyuziv pedagogika konsepsiyasi ham barcha o‘quvchilarni umumiy ta’lim faoliyatiga jalb etish uchun o‘qitish usullarini diversifikatsiya qilish zarurligini ta’kidlaydi.

CAST tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan UDL yo‘riqnomalari (Universal Design for Learning Guidelines) - bu barcha o‘quvchilar uchun teng va sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar majmuasi hisoblanadi. Ushbu yo‘riqnomalar neyrofan (neuroscience), kognitiv psixologiya va zamonaviy pedagogika yutuqlariga asoslanadi. UDL yo‘riqnomalarining asosiy maqsadi – ta’lim muhitini o‘quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashtirish, ya’ni ta’lim jarayonidagi to‘siqlarni kamaytirish va har bir o‘quvchining muvaffaqiyatli o‘qishini ta’minlashdir. Bu yondashuvda muammo o‘quvchida emas, balki ta’lim tizimining moslashuvchan emasligida deb qaraladi. CAST UDL yo‘riqnomalarining 3 asosiy tamoyili quyidagilardan iborat.

1. Turli yo‘llar bilan jalb etish (Multiple Means of Engagement) Bu tamoyil o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirishga qaratilgan. O‘qituvchi o‘quvchilarga tanlov imkoniyatlarini yaratishi, hamkorlikda ishlashni tashkil etishi va ularning individual qiziqishlarini hisobga olishi lozim. Masalan, topshiriq bajarish usulini tanlash (yakka, juftlik yoki guruhda ishlash), o‘yin elementlari va loyihaviy faoliyatlardan foydalanish, o‘quvchining shaxsiy qiziqishlari bilan bog‘liq vazifalarni berish va boshqalar.

2. O‘quv materiallarini turli usullarda taqdim etish (Multiple Means of Representation) Har bir o‘quvchi ma’lumotni turlicha qabul qiladi. Shu sababli bilimlar faqat matn orqali emas, balki audio, video, grafik, diagramma, model yoki amaliy ko‘rgazmalar orqali ham berilishi tavsiya etiladi. Masalan, matnni audioyozuv bilan birga taqdim etish, infografika va sxemalardan foydalanish, subtitrli videodarslar va vizual tayanch materiallarni qo‘llash va boshqalar.

3. Bilimlarni turli shakllarda ifodalash (Multiple Means of Action and Expression) O‘quvchilarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini namoyon etishning bir nechta usullarini tanlash imkoniyati beriladi. Bu, ayniqsa, inklyuziv ta’limda muhim hisoblanadi. Masalan, yozma javob o‘rniga og‘zaki taqdimot qilish, rasm, plakat yoki loyiha tayyorlash, raqamli vositalardan foydalanib prezentatsiya yaratish va boshqalar.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari TUD tamoyillarining nafaqat maxsus ehtiyojli bolalar, balki barcha o‘quvchilar uchun foydali ekanligini ko‘rsatdi. Chunki moslashuvchan o‘quv muhiti, differensial topshiriqlar va ko‘p variantli baholash usullari o‘quvchilarning individual qobiliyatlarini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi.

TUDning uch asosiy tamoyili – o‘quvchilarni turli yo‘llar bilan jalb etish, o‘quv materiallarini turli usullarda taqdim etish va bilimlarni turli shakllarda ifodalash imkoniyatini yaratish – ta’limdagi individual farqlarni hisobga olish va barcha o‘quvchilar uchun teng imkoniyatlar yaratishga xizmat qiladi.

"Besh soha" modeli hamda kuzatish va talqin metodikasi o‘qituvchilarga o‘quvchilarning ehtiyojlarini aniqroq belgilash va mos pedagogik yordamni tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, kollaborativ va differensial ta’lim texnologiyalaridan foydalanish amaliy ko‘nikmalarni shakllantirish, ijtimoiy moslashuvni kuchaytirish va ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Bundan tashqari, kollaborativ ta’lim texnologiyalarini TUD tamoyillari bilan uyg‘unlashtirish o‘quvchilarda ijtimoiy moslashuv, o‘zaro hurmat, kommunikativ madaniyat va jamoada ishlash

ko‘nikmalarini rivojlantirishning samarali vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli inklyuziv ta’limni tashkil etishda o‘qituvchilarning UDL bo‘yicha metodik tayyorgarligini oshirish hamda ta’lim muhitini universal dizayn tamoyillari asosida qayta loyihalash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

1. O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. CAST. Universal Design for Learning Guidelines 3.0. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2024.
3. UNESCO. Guidelines for Inclusion: Ensuring Access to Education for All. Paris: UNESCO Publishing.
4. UNESCO. A Guide for Ensuring Inclusion and Equity in Education. Paris: UNESCO, 2017.
5. Florian, L., & Black-Hawkins, K. Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 2011. – P. 813–828.
6. Meyer, A., Rose, D.H., & Gordon, D. Universal Design for Learning: Theory and Practice. Wakefield, MA: CAST Professional Publishing, 2014.
7. Tomlinson, C.A. How to Differentiate Instruction in Academically Diverse Classrooms. Alexandria, VA: ASCD, 2017.
8. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-trening materiallari: “UNICEF. Handouts for Day 1, 25–26 May 2026”.
9. Inklyuziv ta’lim bo‘yicha o‘quv-trening materiallari: “UNICEF. Handouts for Day 2, 25–26 May 2026”.